



FOLKLOR NAMUNALARINI NASHR ETISH MASALALARI

Husanova Dildora Nasriddinovna

dildorahusanova1798@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17984676>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 14-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 19-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

Folklor, folklorizm, nashr, arxiv, qo'lyozma, "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari"

ABSTRACT

Ushbu maqolada mustaqillikkacha va mustaqillikdan keyingi davrlarda folklor asarlari namunalarini to'plash va nashr etish yuzasidan olib borilgan tadqiqot va ekspeditsiyalar yoritilgan. Shuningdek, bu tadqiqotlarga hissa qo'shgan olim va olimlarning ilmiy faoliyatlari atroflicha o'rganilgan

Xalqimiz badiiy salohiyatining asrlar davomidagi taraqqiy etishi natijasida turli janrlardan iborat og'zaki badiiy ijod namunalari yaratilgan. Zero, o'zbek xalq ijodiyoti ajdodlarimizning ko'p asrlik badiiy tafakkur durdonalarini o'zida mujassamlashtirgan milliy qadriyatlar tizimi sanaladi. Folklorshunoslik esa xalq og'zaki ijodi asarlarini to'plash, folklor asarlarini arxivlashtirish, uning eng yaxshi namunalarini nashr etish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish bilan shug'ullanadi. Xalq og'zaki badiiy ijodiyotini to'plash, sistemalashtirish, ommaviy va akademik nashrlarni amalga oshirish hamda keng ko'lamli fundamental tadqiqotlarni yaratish borasida o'tgan asrdan bugungi kunga qadar yirik ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

1918-yil "Maorif" jurnalining 1-sonida xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini to'plovchilar uchun qo'llanma chop ettirilishi bilan o'zbek folklori materiallarini ilmiy asosda yozib olishga asos solingan. G'.O.Yunusov folklor-etnografik ekspeditsiyalarga boshchilik qilgan, xalq og'zaki badiiy ijodi namunalarini to'plash va ommalashtirishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. G'.O.Yunusov o'zbek eposshunosligi tarixida birinchi bo'lib 1922-yilning yozida Fozil Yo'ldosh o'g'li va Hamroqul baxshilardan "Alpomish" dostonidan parchalar yozib olgan. Olim o'zbek folklori namunalarini to'plovchilar uchun metodik qo'llanma ham yaratgan. 1925-1928-yillarda G'ozzi Olim Yunusov, Hodi Zarifov, Abdulla Alaviy kabi milliy qadriyatlarimiz fidoyilari xalq baxshilarini, ertakchi va qo'shiqchilarni aniqlash, ularning repertuaridagi asarlarni yozib olishni tashkil etib, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Nurmon Abduvov o'g'li, Berdi baxshi, Abdulla shoir va boshqa ko'plab baxshilardan xalq dostonlarini yozib olishgan. O'sha davrda to'plangan materiallar bugungi kunda o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi durdonalari saqlanayotgan O'zRFA Til va adabiyot instituti Folklor arxivining yuzaga kelishiga zamin hozirlagan. Folklor asarlarini yozib olish, to'plash, nashr etish va o'rganishga ulkan hissa qo'shgan alloma, o'zbek folklorshunosligining asoschilaridan biri H.T.Zarifovdir.

"O'zbek xalq ijodi" ko'pjildligini nashr etish g'oyasi, uning mazmun-mohiyatini belgilash ham Hodi Zarifga tegishlidir. Hodi Zarif: "O'zbek folklori yodgorliklari" degan umumiy nom ostidagi bu nashr 20-25 jilddan iborat bo'lishi, unga xalq og'zaki badiiy ijodining barcha janrlariga oid eng sara asarlar kiritilishi, xalq ijodkorlari og'zidan bevosita yozib olingan Folklor arxividagi qo'lyozmalar asosida tayyorlanishi va keng xalq ommasiga mo'ljallanishini ta'kidlagan. Shunday qilib, 1920- yilning oxiri, 1963 yilning boshlaridan Hodi Zarif ko'pjildlikni tayyorlashning tashkiliy va amaliy ishlariga jiddiy kirishib ketdi. Ilmiy xodimlarga ko'pjildlikning rejasi va unga kiruvchi asarlarni nashrga tayyorlash qoidalarini ishlab chiqish uchun materiallar yig'ishga topshiriqlar berildi. Nihoyat, Folklor sektorining 1964-yil 18-apreldagi yig'ilishida ko'pjildlikni "O'zbek xalq ijodi" degan umumiy nomda yagona tartibda raqamli tarzda emas, balki janrlar bo'yicha jildlarning tayyorlanishiga qarab, bir xil muqova va shaklda ketma-ket nashr eta borishga kelishib olindi. Dastlab ko'pjildlikni "O'zbek folklori yodgorliklari" nomida har bir janrni alohida-alohida seriyalar tarzida raqamlab, nashrga tayyorlash rejalashtirilgan edi. O'sha yillarda, 1961-yilda Folklor sektorida 7 nafar fan nomzodi (H.Zarif, M.Afzalov, M.Alaviya, Q.Ayimbetov, J.Qobulniyozov, O.Sobirov, M.Saidov), uch nafar ilmiy darajasiz kichik ilmiy xodim (Z. Husainova, F.Sultonova, O.Boqiyev), uch nafar laborant (F.Ubaydullayev, Sh.Xo'jayeva, T.Ashurov) ishlardi. Bitta ham fan doktori bo'lmagan. Ana shunday ozgina salohiyat bilan ko'pjildlikni nashr etishga kirishish ulkan jasorat edi. 1964-yil 18-aprelda Hodi Zarif "O'zbek xalq ijodi" ko'p tomligiga kiradigan asarlarni tayyorlash prinsiplari" haqida batafsil ma'ruza qildi.¹ Ma'ruza jarayonida folklor namunalarini yozib olishda quyidagilarga amal qilish lozimligini aytib o'tdi: Ilmiy-akademik nashrlarni tayyorlashga nisbatan ilmiy-ommabop nashrlarni hozirlash ancha og'ir va qiyin kechishini, chunki bunday nashrlarda ilmiylikni to'la saqlagan holda uning har har xil did va saviyaga ega bo'lgan barcha kishilarga mo'ljallanganiga ham alohida e'tibor berish kerakligi, shu sababli bunda tanlash bilan birga matnni to'la saqlash o'ta muhimligiga e'tibor qaratishni aytib o'tdi. Shuningdek, folklor asarlari matnida har bir kichik detal, har bir so'z, hatto har bir tovushning o'z o'rnini, poetik funksiyasi borligi, shu sababli matndagi biror so'z yoki kichik bir detalni o'zgartirish, uni o'chirib tashlash yoki boshqa bir muqobili bilan almashtirish asarning folklorlik xususiyatini yo'qotishiga sabab bo'lishini ta'kidladi. 1964 yilning aprel oyidan boshlab "O'zbek xalq ijodi" ko'pjildligini nashrga tayyorlash va chop etish ishlari tezkorlik bilan boshlanib ketdi. Dastlabki uch jildni H.Zarifov tayyorlovchilardan keyin arxivdagi asl nusxalari bilan solishtirib, jiddiy ravishda ko'rib chiqdi. 1964-1990 yillar davomida chop etilgan 37 jild kitob folklorshunosligimiz tarixida ulkan voqea bo'ldi. Jildlar bir-birini takrorlamaydi va ularda variantlar deyarli berilmagan. Ko'pjildlik o'zbek folklori deyarli barcha janrlari namunalarini qamrab olgan. Jumladan, ko'pjildlikning 21 tasi dostonlardan, 8 tasi ertaklar, afsona va rivoyatlardan, 4 tasi qo'shiqlardan iborat. Latifa, askiya, maqol va topishmoqlar alohida-alohida jildlarni tashkil etgan. Ushbu jildlarga 55 ta an'anaviy va 10 ta yangi dostonlar, 415 ta ertaklar, afsona va rivoyatlar kiritilgan. Folklorshunoslardan Hodi Zarif 8 ta, Mansur Afzalov 10 ta, Zubayda Husainova 12 ta, M. Saidov, T.Mirzayevlar oltitadan, M.Alaviya, B.Sarimsoqovlar to'rttadan, M.Murodov uchta, K.Imomov, O.Sobirov, H.Razzoqov, T.Ashurov, S.Asqarov, N.Saburovlar ikkitadan, X.Rasulov, T.G'oziboyev, R.Muhammadiev, Sh.Shomaqsudov,

¹ To'ra Mirzayev. Hodi Zarif Suhbatlari. Toshkent, 2013. (115-b)

Sh.Shorahmedov, Sh.Xo'jayeva, A.Qahhorov, O.Safarov, S.Ro'zimboev, K.Ochilov, A.Musaqulov, A.Ergashevlar bittadan jildlarni nashrga tayyorlashda ishtirok etganlar.²

Muhokama va natijalar

Folklor namunalarini to'plash va nashr etishga hissa qo'shgan olimlarimiz sifatida ko'plab olim va olimalarimizni sanab o'tishimiz mumkin, ammo ulardan bu ishga umrinini fido qilgan olim sifatida o'zbek folklorshunosligining asoschisi H.Zarifovni keltirishimiz o'rinlidir. O'zining folklorshunos sifatida ilm faoliyatini to'plovchilikdan boshlagan. H.T.Zarifov o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi bo'lib XX asrning 20-yillaridayoq xalq ijodi asarlarini to'plash va nashr etish uchun maxsus transkripsiyani ishlab chiqqan. H.Zarifov "Shayboniyxon", "Ravshan", "Malika ayyor", "Chambil qamali", "Kuntug'mish", "Oysuluv", "Yodgor", "Kunduz bilan Yulduz", "Ochildov", "Xurshidoy", Mamatkarim polvon", "Jizzax qo'zg'oloni" "Hasan batrak", "Alpomish", "Yakka Ahmad", "Xoldorxon" kabi dostonlarni nashrga tayyorlagan. U "O'zbek folkloridan namunalar", "O'zbek folklori", "Otalar so'zi - aqlning ko'zi", "O'zbek xalq shoirlarining ijodi", "O'zbek she'riyati antologiyasi" (1-tom) majmualarini nashr ettirgan.

O'zbek folklorshunosligi taraqqiyotida ayol tadqiqotchilarning ham munosib o'rni bor. Hatto ulardan o'nlab fan nomzodlari va fan doktorlari yetishib chiqdi. Bularning orasida Muzayyana Alaviya va Zubayda Husainovalar alohida ajralib turadi. Ular folklorini to'plash, nashr etish, o'rganish bilan doimiy shug'ullanib kelgan. Bu davr folklorshunoslari faoliyatida bir jihat xarakterli. Ular folklor namunalarini, to'plash, o'rganish jarayonida ma'lum bir folklor janrini "o'ziniki" qilib olgan. Masalan, H.Zarifov ilmiy faoliyatida dostonlarni o'rganish yetakchi o'rinda tursa, M.Afzalov ertaklarni tadqiq etishga ko'proq e'tibor qaratgan. Z.Husainova topishmoqlarni to'plash va o'rganish bilan shug'ullangan. Shular qatorida M. Alaviya o'z umri va faoliyatini xalq qo'shiqlarini to'plash, nashr etish va o'rganishga bag'ishladi. Shu sababli ham bu janr bo'yicha "O'zbek xalq qo'shiqlari" (1959), "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" (1974) kabi monografiyalar, ko'plab risola va ilmiy maqolalar yaratdi. Qo'shiqlarning eng yaxshi, saralangan to'plamlari ham M.Alaviya tomonidan tuzilgan va nashr etilgan. U folklor namunalarini to'plashga 1927-yilda kirishgan, ammo uzoq muddat, 15-20 yil davomida bu ish bilan shug'ullanish imkoniyati bo'lmaydi. U ikkinchi marta folklor asarlarini yozib olish, nashr va tadqiq etish ishlariga jiddiy ravishda 40-yillarning oxirlaridan kirishdi. Bu yillarda o'nlab ekspeditsiyalar va ilmiy safarlarda bo'ldi. Folklor to'plash ishlariga shu darajada berilib ketdiki, hatto oilaviy sharoiti taqozasiga ko'ra, Xorazmday uzoq vohalarga uyushtirilgan ekspeditsiyalarga uch-to'rt yashar kichik o'g'li Anisxonni yetaklab boradi. Bu fidoyilik va jasorat namunasi edi. Olimaning ko'p yillik izlanishlari natijasida "O'zbek xalq qo'shiqlari", "Yangi qo'shiqlar", "O'zbek folkloridan namunalar", "Oq olma-qizil olma", "Xalq qo'shiqlari" kabi to'plamlari yuzaga kelgan. U Fozil Yo'ldosh o'g'lining "Intizor" dostonini nashrga tayyorlagan. M.Alaviya O'zRFA Til va adabiyot institutining folklor ekspeditsiyalari ishtirokchisi sifatida oilaviy-maishiy marosimlar bilan aloqador o'lan, yor-yor, kelin salom, lapar kabi janrlarga oid matnlarni to'plagan. M.Alaviyaning o'zbek marosim folklorini ilmiy tadqiq etish borasidagi izlanishlari 1974-yilda chop ettirilgan "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" nomli monografiyasida umumlashtirildi. Bundan tashqari o'zbek xalqining musiqa merosini to'plash

² To'ra Mirzayev. Hodi Zarif Suhbatlari. Toshkent, 2013. (158-159-b)

bilan Y.Rajabiy ham shug'ullangan. U 1955-1959 yillarda o'zi to'plagan materiallar asosida mingdan oshiq xalq qo'shiqlari va cholg'u kuylarini o'z ichiga olgan "O'zbek xalq musiqasi" majmuasining 126 jildini nashr ettirgan. U Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari, Buxoro "Shashmaqom"i va uning tarkibiy qismlarini to'plab, nashrga tayyorlagan hamda 1966-1975 yillarda olti jildlik kitob holida chop ettirgan.

Mansur Afzalov — serqirra folklorshunos. U folklor asarlarini yozib olish, nashrga tayyorlash va ilmiy o'rganish ishlarini barobar olib borish bilan birga oliy o'quv yurtlarida folklor kursini o'qitishni birinchilardan bo'lib yo'lga qo'ygan olimlardandir. U 1939 yilda Samarqand davlat universitetida birinchi marta folklor kursidan ma'ruzalar o'qish bilan birga bu kursdan dastur va xrestomatiyalar ham tuzdi. Mansur Afzalov faoliyatida o'zbek xalq ertaklarini o'rganish asosiy o'rinda turadi. U bu sohada o'nlab ilmiy maqolalar va "O'zbek xalq ertaklari haqida" monografiyasini e'lon qildi. Uning rahbarligi va bevosita ishtirokida tayyorlangan rus va o'zbek tillaridagi "O'zbek xalq ertaklari" ning ikki jildligi hozirgacha qayta-qayta nashr etilib kelmoqda. Mansur Afzalov ertaklarni o'rganish bilan birga folklorning boshqa janrlari, jumladan, dostonlar, maqollar, qo'shiqlarni tadqiq etishda ham munosib xizmatlar qildi. Ayniqsa, xalq maqollarining bir necha to'plamlarini tuzdi va nashr etdi. O'zbek xalq ertaklari, doston va afsonalarni to'plab, tadqiq etgan M. Afzalov Islom shoirning "Orzigul", "Gulixiromon" (S. Asqarov bilan hamkorlikda, Fozil shoirning "Shirin bilan Shakar", "Murodxon" (X. Rasul bilan hamkorlikda, "Balogardon" (X. Rasul bilan hamkorlikda, "Farhod va Shirin", "Zulfizar", Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Xushkeldi" dostonlarini nashrga tayyorlagan. U Islom shoir "Tanlangan asarlar" i, "O'zbek folkloridan o'quv materiallari", "O'zbek dostonlari", "O'zbek she'riyati antologiyasi", "O'zbek xalq ertaklari", "O'zbek xalq maqollari" majmualarini ham chop ettirgan.

Zubayda Husainova 50 yildan ko'proq davrda xalq ijodi namunalarini to'plash va ularni Folklor arxiviga olish, sistemalashtirish ishlarida samarali faoliyat ko'rsatdi. Xususan, xalq topishmoqlarini to'plash va nashr etish bilan butun umri davomida doimiy va izchil ravishda shug'ullanib keldi. Ayniqsa, uning Mansur Afzalov va Xolid Rasullar bilan hamkorlikda tayyorlangan "O'zbek xalq ertaklari" ikki jildligi (1958-1960) katta shuhrat qozondi va bugungacha qayta-qayta nashr etilib kelinmoqda. Bu ikki jildlik rus tiliga tarjima qilinib, bir necha bor chop etildi. Olimaning "O'zbek xalq ijodi" ko'p tomligini nashrga tayyorlashdagi xizmatlarini alohida ta'kidlash zarur. 37 jildda nashr etilgan ushbu seriyaning "Suv qizi", "Oltin olma", "Oyjamol", "Kulsa - gul, yig'lasa - dur", "Luqmoni hakim", "Gulnor pari", "Gulshanbog", "Hasanxon", "Oysuluv", "Malika ayyor", "Nurali" "Oshiq g'arib va Shohsanam", "Avazxon", "Xolbeka", "Alibek va Bolibek", "Chambil qamali", "Avazxonning o'limga hukm etilishi", "Mashriq" kabi o'ndan ortiq jildlari uning hamkorligida nashrga tayyorlangan. "O'zbek xalq maqollari" ikki jildlik akademik nashrini (1987-1988), shoir-qissaxon Rahmatulla Yusuf o'g'lidani yozib olingan 27 dostonni o'z ichiga olgan "Go'ro'g'li" to'plamini (2006) tayyorlashdagi ishtiroki ham e'tiborga loyiqdir. Shuningdek, professor T. Mirzayev bilan hamkorlikda Nurali Nurmat o'g'li va Abdug'afur Shukurov kabi ertakchilardan yozib olingan ertak, naql, latifalar hamda Rahmatulla Yusuf o'g'li repertuaridagi "Go'ro'g'li" turkum dostonlarni chop ettirgan.

Folklorshunos olim R. Muhammadiyevning tashabbusi va ishtirokida askiya san'ati materiallarini to'plash, o'rganish va ommalashtirish maqsadida maxsus folklor ekspeditsiyalari o'tkazilgan. 1961 yilda Farg'ona vodiysida ish olib borgan birinchi ekspeditsiyada askiya janrining tarqalish doirasi va tarixiy taraqqiyotini o'rganishga doir materiallar

to'plangan. 1963-yilda o'tkazilgan ikkinchi ekspeditsiya chog'ida mashhur askiyabozlarning repertuari tadqiq etilgan, ustoz so'z san'atkorlari haqidagi xotiralar, rivoyatlar, latifalar va o'zbek askiyachilarining ijodiy merosi to'plangan. 1965-yilning yozida esa Farg'ona vodiysining shimoliy tumanlarida, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi yosh askiyachilar ijodiyoti o'rganilgan. Shuningdek, O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalarini chuqur tadqiq etgan M.Saidov "Nurali", "Zulfizar", "Gulnor pari", "Avazxon", "Misqol pari", "Tohir va Zuhra", "Sumanbar", "Zevaxon", "Varqa bilan Gulshoh", "Vomiq va Uzro", "Balxuvon", "Gulshanbog" dostonlarini chop ettirgan. O'zbek folklorini to'plash, nashr ettirish va o'rganishga katta hissa qo'shgan J.Qobulniyozov Xorazm xalq dostonlari va qo'shiqlarini yozib olib, xalfalar ijodini o'rgangan. Bola baxshi Abdullayevdan "Bozirgon", "Avazxon", "Oshiq Malimud", Mahmud Yusupovdan "Oshiq Mahmud", "Sayyodxon va Hamro" dostonlarini yozib olib, 1966-1970 yillarda chop ettirgan. 1966-yilda esa o'zi to'plagan xalq qo'shiqlari asosida "Xorazm xalq qo'shiqlari" to'plamini nashr ettirgan. O'zbek folklori asarlarini to'plash va sistemalashtirish ishiga katta hissa qo'shgan M.Murodov 1959-yildan to 1990-yillarning oxirigacha respublikamizning turli viloyatlarida folklor ekspeditsiyalarida bo'lib, Yusuf O'tagan o'g'li, Razzoq Qozoqboy o'g'li, Husan baxshi Rajab o'g'li. Haydar Boycha o'g'li, Usmon Madumar o'g'li, Eshqobil Qo'shoq o'g'li, Hazratqul Xudoyberdi o'g'li, Qodir Rahim o'g'li, Xushvaqt Mardonaqul o'g'li kabi baxshilarning repertuarini o'rgangan, yuzlab ertak, rivoyat, afsona, maqol va topishmoqlarni yozib olgan. U "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Xilaman", "Bahrom va Gulandom", "Zevaxon", "Gulruh pari", "Qorako'z oyim", "Jorxon maston", "Nurali" kabi dostonlarni nashrga tayyorlagan. O'zi yozib olgan materiallar asosida "Allomalar ibratini" rivoyatlar to'plami va "O'zbek xalq fantastikasi" silsilasidagi "Oymoma ajdaho", "Qora dev", "Yonar daryo", "Samo tulpori", "Gulqahqah", "Oltin olma" kabi ertak majmualarini chop ettirgan. Marosim folklorini tipologik aspektida o'rgangan B.Sarimsoqov o'zining bu yo'nalishdagi tadqiqotlarini "O'zbek marosim folklori" (1986) nomli monografiyasida umumlashtirilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin folklor asarlarini nashr etish borasidagi ishlar sezilarli darajada o'sdi. Ko'pgina dostonlar, xalq kitoblari ilk bor nashr ettirildi. "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligi keng nishonlanishi munosabati bilan professor T.Mirzayev bu dostonning Berdi baxshi, Po'ltan va Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li variantlarini 1999 -yilda alohida kitoblar holida nashr ettirdi. U folklorshunoslik amaliyotida birinchi marotaba "Alpomish" dostoni Fozil Yo'ldosh o'g'li variantining matni, rus tiliga qilingan ilmiy-adabiy tarjimai bilan birgalikda akademik nashrga tayyorlab, chop ettirdi. Germaniyadagi Bonn universiteti professori Karl Rayxelning Folklor bo'limi bilan ijodiy aloqalari natijasida bir qator o'zbek xalq ertaklari va "Alpomish" dostonining nemis tiliga qilingan tarjimai nashrdan chiqdi. Alisher Navoiy haqidagi o'zbek xalq tarixiy rivoyatlarining M.Jo'rayev nashrga tayyorlagan majmuasi 1996-yilda Bokuda ozarbayjon tilida chop etildi. Folklor bo'limida o'z ilmiy malakasini oshirgan Filiz Qirbosh o'g'li (Turkiya) "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonini, Selami Fidokor (Turkiya) esa "Rustamxon" va "Erali va Sherali" dostonlarini turk tiliga tarjima qilib, nashr ettirdi. Shuningdek, Turkiyada ham "Alpomish" dostoni bosilib chiqdi. Yapon olimi Xerokining "Turkiy xalqlar qahramonlik eposi" kitobi (2012) Tokioda, Karl Rayxelning "Turkiy xalqlar eposi" kitobi (2012) Anqarada bosilib chiqdi. 2007-yilda professor T.Mirzayev hamda J.Eshonqul tomonidan

nashrga tayyorlangan "Oychinor", "Erali va Sherali" dostonlari Turkiyada chop ettirildi.³ O'zbek xalq maqollarini to'plash va uning eng mukammal majmuasini yaratish borasidagi ishlar uzluksiz davom ettirildi. Natijada 2005-2006-yillarda T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulovlar tomonidan nashrga tayyorlangan "O'zbek xalq maqollari"ning kirill va lotin alifbosidagi nashri "Sharq" nashriyot-matbaa konsernida bosmadan chiqarildi. O'zbek xalq ertaklarining bir necha to'plamlari dunyo yuzini ko'rdi. Jumladan, K.Imomov "O'zbek xalq ertaklari"ni lotin yozuvida chop ettirdi (2000). 2007-yilda uch jildlik "O'zbek xalq ertaklari" majmuasi nashrdan chiqdi. Shuningdek, "Dev qiz. O'zbek xalq ertaklari" (1992), "Ming bir kulgi. O'zbek xalq ertaklari" (1994), "Sichqon qiz. O'zbek xalq ertaklari" (1998), "Kenja botir. O'zbek xalq ertaklari" (2000) kabi to'plamlarni nashrga tayyorlab chop ettirdi. O'zbek folklorshunoslari, afsona va rivoyatlardan tuzilgan folklor to'plamlarini chop ettirdilar. Xususan, "El desa Navoiyni. Hazrat Mir Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar", "Ipak yo'li afsonalari", "Bobolardan qolgan naqlar", "Buxoro afsonalari" kabi to'plamlar mustaqillik davri o'zbek folklorshunosligi tarixida muhim o'rin tutadi. Istiqlof tufayli marosim folklorining ilgari nashr etilmagan yoki qisman ommalashtirilgan namunalari chop ettirildi. Xususan, o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi marta navro'z bayrami bilan bog'liq o'zbek folklori asarlaridan tuzilgan "Navro'z" kitobi, yilboshi bayrami va bahoriy udumlar bilan aloqador urf-odat va marosimlar, unda ijro etiladigan qo'shiqlar tahliliga bag'ishlangan "Navro'z qo'shiqlari", yilboshi tarixi, udumlari va folklorini tadqiq etishga doir "Navro'z bayrami" kitoblari nashr etildi. Shuningdek folkloristik izlanishlar samarasi o'laroq "Ostonasi tillodan. To'y marosim qo'shiqlari", "Qizil gulning g'unchasi. Kelin salom"lar, "Oy oldida bir yulduz. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari". "To'y muborak. Yor-yor", "Sarchashmadan tomgan injular. Surxon vohasi o'zbek to'y marosim qo'shiqlari" kabi folklor to'plamlari nashrdan chiqdi.

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodini to'plash, nashr etish va tadqiq etish borasida ulkan ishlarni amalga oshirib kelayotgan O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor bo'lim H.T.Zarifov tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan 1928-yilda tashkil etilgan. 1929-yilning dekabrda H.T.Zarifov mudir bo'lgan bu kabinet yangidan tashkil etilgan O'zbekiston davlat ilmiy-tekshirish instituti ixtiyoriga mustaqil tuzilma sifatida beriladi (1929-1931). Folklor bo'limida o'zbek xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqol va topishqlarining ko'plab alohida nashrlari, 37 jilddan iborat "O'zbek xalq ijodi" (1964-1990), "O'zbek xalq maqollari" ikki jildligi (1987-1988), sakkiz kitobdan iborat "O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar" (1967-1981), "O'zbek folklori ocherklari" uch jildligi (1988-1989), "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" darsligi (1980, 1990, 2010), Ergash Jumanbulbul o'g'li doston va termalaridan tuzilgan "Bulbul taronalari" besh jildligi (1971-1973), rus tilidagi uch jildligi (1974, 1977), "Alpomish" dostonining akademik nashri (1999), "O'zbek folklorshunosligi masalalari" nomli turkum tadqiqotlarning besh kitobi (2006, 2010-2011, 2015), "O'zbek folklori tarixi" to'rt jildligining ikki jildi (2015) kabi fundamental ishlar amalga oshirildi. 2015-yildan Folklor bo'limida olib borilayotgan "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligini nashrga tayyorlash va uni tekstologik o'rganish masalalari nomli fundamental ilmiy tadqiqot natijasida tayyorlangan "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligining dastlabki 1-6-jildlari bosib chiqarildi. Istiqlof yillarida bo'lim xodimlari quyidagi ilmiy loyihalar asosida ish olib borishdi: 2007-2011-yillar. "O'zbek folklori tarixi" 4 jildligi. Loyiha rahbari: T.Mirzayev. Mazkur ilmiy

³ M.Jo'rayev, J.Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. Toshkent, 2017. (134-b)

loyiha doirasida katta qamrovdagi ilmiy tadqiqot ishlari bajarildi. 2012-2016-yillar. "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligini nashrga tayyorlash va uni tekstologik o'rganish masalalari" (1-35-jildlar). Loyiha rahbari: M.Jo'rayev. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to'g'risidagi" 1998-yil 13-yanvardagi qarori hamda 2010-yil 7-oktabrdagi "2010-2020-yillarga mo'ljallangan nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida" 222-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zR FA Folklor bo'limida bajarilayotgan mazkur fundamental ilmiy loyiha asosida "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 tomliqi asar matni, notasi va izohlari bilan nashr etildi. 2015-yilning ikkinchi yarmidan e'tiboran G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligini nashr etishga kirishildi. 2012-2014-yillar. "15 jildli "O'zbek folklori va adabiyoti tarixi"ni nashrga tayyorlash va chop etish". Loyiha rahbari: T.Mirzayev. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi janrlar tarkibining shakllanish tarixi va tadrijiy rivojlanish jarayonini tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlar tahrir qilib, nashrga tayyorlandi. "O'zbek folklori tarixi"ning birinchi va ikkinchi jildlari 2015yilda nashr etildi. 2015-2017-yillar. "O'zbek folklorshunosligi tarixi". Loyiha rahbari: Sh.Turdimov.⁴ Ushbu ilmiy loyiha o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodini to'plash, nashr etish va o'rganish bo'yicha hozirga qadar amalga oshirilgan ishlarni tadqiq etish asnosida folklorshunoslik tarixini yaratishni ko'zda tutadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, bugungi globalizatsiya davrida folklor namunalari yo'qolib ketmoqda. Ba'zi hududlardagina uning qismlarinigina uchratishimiz mumkin. Uni keyingi avlodlarga yetkazish barchamizning zimmamizda bo'lishi lozim. Buning uchun, albatta, unitilish arafasiga kelib qolgan ko'plab xalq og'zaki ijodi na'munalarini qayta tiklash, ijrochilik an'analarini rivojlantirish, nashr etish va uni o'quvchilarga yetkazish zarur. Zero, folklor asarlari bu bizning, ajdodlarimizning tarixi, dunyoqarashi, tili va madaniyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.T. Mirzayev.Hodi Zarif suhbatlari - Toshkent,2013.
- 2.M. Jo'rayev.Folklorshunoslik asoslari.Toshkent,2009.
- 3.O'zR Fanlar akademiyasi qoshidagi o'zbek tili va adabiyoti va folklori instituti. tai.academy.uz.
- 4.M.Jo'rayev, J.Eshonqulov .Folklorshunoslikka kirish. Toshkent,2017.
5. O.Safarov. Xalq og'zaki ijodi poetikasi.Toshkent.2010.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi qoshidagi o'zbek tili va adabiyoti va folklori instituti. tai.academy.uz.